


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI  
(2022- yil yanvar oyi uchun dastlabki ma`lumot)**

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 91,1 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 132,2 % ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI  
(yanvar, mln.AQSh dollari)**

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 40,5 mln.AQSh dollariga (47,7 % ga ko'paydi) va import hajmi 50,6 mln.AQSh dollariga (21,9 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 10,1 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT  
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR  
(2022- yil yanvar, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Rossiya Federatsiyasi	27,1	19,9	7,1	29,7
Xitoy Xalq Respublikasida	24,8	5,2	19,6	27,2
Turkiya	9,6	4,8	4,9	10,6
Qirg'iz Respublikasi	5,6	4,6	1,0	6,1
Qozog'iston	5,1	1,3	3,7	5,6
Turkmaniston	3,2	0,6	2,5	3,5
Ukraina	2,2	1,2	1,0	2,4
Korey Respublikasi	2,0	0,2	1,8	2,2
Hindiston	1,8	0,1	1,6	1,9
Germaniya	1,5	0,5	0,9	1,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 44 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (29,7 %), Xitoy Xalq Respublikasida (27,2 %), Turkiyada (10,6 %), Qirg'iz Respublikasida (6,1 %), Qozog'istonda (5,6 %), Turkmaniston (3,5 %) va Ukraina (2,4 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (27,1 mln.AQSh.dollari), Qirg'iz Respublikasi (3,7 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>15020,8</b>	<b>19053,8</b>	<b>27077,2</b>
Eksport	10729,3	12541,4	19949,7
Import	4291,4	6512,4	7127,5
Saldo	6437,9	6029,0	12822,2
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>18176,2</b>	<b>20492,0</b>	<b>24803,0</b>
Eksport	4979,3	5280,2	5208,9
Import	13197,0	15211,8	19594,1
Saldo	-8217,7	-9931,6	-14385,3



Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Turkiya</b>	<b>2967,9</b>	<b>3541,0</b>	<b>9618,3</b>
Ekspport	1320,6	1202,2	4765,2
Import	1647,3	2338,8	4853,1
Saldo	-326,7	-1136,5	-88,0
<b>Qirg'iziston Respublikasi</b>	<b>3503,7</b>	<b>3887,9</b>	<b>5574,6</b>
Ekspport	3061,9	3229,6	4624,2
Import	441,8	658,3	950,5
Saldo	2620,1	2571,3	3673,7
<b>Qozog'iston</b>	<b>4284,8</b>	<b>10278,2</b>	<b>5062,7</b>
Ekspport	2092,8	1465,8	1340,2
Import	2192,0	8812,4	3722,5
Saldo	-99,2	-7346,5	-2382,3
<b>Turkmaniston</b>	<b>336,0</b>	<b>716,7</b>	<b>3193,7</b>
Ekspport	175,7	300,1	644,4
Import	160,3	416,7	2549,3
Saldo	15,4	-116,6	-1904,9
<b>Ukraina</b>	<b>556,6</b>	<b>1246,4</b>	<b>2198,3</b>
Ekspport	432,5	539,4	1157,5
Import	124,2	707,0	1040,8
Saldo	308,3	-167,6	116,7
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1302,6</b>	<b>960,3</b>	<b>2033,9</b>
Ekspport	0	11,7	220,1
Import	1302,6	948,6	1813,8
Saldo	-1302,6	-936,9	-1593,6
<b>Hindiston</b>	<b>537,5</b>	<b>1101,8</b>	<b>1757,1</b>
Ekspport	88,2	232,8	148,2
Import	449,3	868,9	1608,9
Saldo	-361,1	-636,1	-1460,7

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Germaniya</b>	<b>3038,6</b>	<b>874,1</b>	<b>1451,5</b>
Eksport	153,4	49,0	548,6
Import	2885,2	825,1	902,9
Saldo	-2731,9	-776,1	-354,3
<b>Tojikiston</b>	<b>119,5</b>	<b>197,9</b>	<b>1216,4</b>
Eksport	51,6	111,9	397,4
Import	67,9	86,0	819,1
Saldo	-16,3	25,9	-421,7
<b>Litva</b>	<b>167,2</b>	<b>41,9</b>	<b>1098,9</b>
Eksport	0	0	25,8
Import	167,2	41,9	1073,1
Saldo	-167,2	-41,9	-1047,3
<b>Polsha</b>	<b>875,5</b>	<b>418,1</b>	<b>867,5</b>
Eksport	724,4	240,9	449,3
Import	151,2	177,2	418,2
Saldo	573,2	63,6	31,1
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>512,8</b>	<b>218,4</b>	<b>755,4</b>
Eksport	0	0	121,8
Import	512,8	218,4	633,6
Saldo	-512,8	-218,4	-511,8
<b>Belarus</b>	<b>288,4</b>	<b>528,9</b>	<b>752,2</b>
Eksport	240,1	123,4	137,1
Import	48,3	405,6	615,1
Saldo	191,8	-282,2	-478,0
<b>Malayziya</b>	<b>1346,2</b>	<b>499,8</b>	<b>477,1</b>
Eksport	0	0	0
Import	1346,2	499,8	477,1
Saldo	-1346,2	-499,8	-477,1

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Chehiya</b>	<b>10,0</b>	<b>21,7</b>	<b>384,8</b>
Ekspart	1.7	0	11.4
Import	8,3	21,7	373,4
Saldo	-6,6	-21,7	-362,0
<b>Shedsariya</b>	<b>9115,6</b>	<b>8,9</b>	<b>366,5</b>
Ekspart	0	0	0
Import	9115,6	8,9	366,5
Saldo	-9115,6	-8,9	-366,5
<b>Latviya</b>	<b>236,4</b>	<b>296,9</b>	<b>339,9</b>
Ekspart	0	0	73,6
Import	236,4	296,9	266,2
Saldo	-236,4	-296,9	-192,6
<b>Italiya</b>	<b>426,3</b>	<b>301,9</b>	<b>307,4</b>
Ekspart	221,6	92,6	103,4
Import	204,7	209,3	204,0
Saldo	16,8	-116,7	-100,6

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar oyida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 49,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi 25,8 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA  
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI  
(yanvar % va ulushi )**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar oyida 2021- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (39,2 % ga) va jami TSA dagi ulushi 50,3 % ni tashkil etdi.

## NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar)

Joriy yilning yanvar oyida viloyatning eksportyorlar soni 508 tani tashkil etib, ular tomonidan 40,5 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 47,7 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,4 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (82,9 %), Oziq-ovqat mahsulotlari (8,2 %) va Mashinalar va transport asbob-uskunolari (2,3 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI**  
(2022- yil yanvar, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunolari
- Sanoat mahsulotlari
- Xizmatlar
- Boshqalar





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>40,5</b>	<b>28,5</b>	<b>12,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3,3	1,6	1,7	8,2	5,6	14,2
Qora metallar	0,3	0,2	0,1	0,8	0,7	0,8
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1,1	1,1	0	2,8	3,9	0
Sanoat tovarlari	33,7	23,8	9,9	82,9	83,5	82,5
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,9	0,9	0	2,3	3,2	0
Xizmatlar	1,1	0,8	0,3	2,6	2,8	2,5
Boshqalar	0,1	0,1	0	0,4	0,3	0

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR  
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar, % va ulushi,)




2022- yilning yanvar oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 49,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (12,8 %), Turkiya (11,8 %), Qirg'iz Respublikasi (11,4 %), Qozog'iston (3,3 %), Ukraina (2,9 %) va Turkmaniston (1,6 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 90,3 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021- yining mos davriga nisbatan 25 davlatdan 29 davlatga ko'paydi.

### NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar, % da)



- Rossiya Federatsiyasi
- Xitoy Xalq Respublikasi
- Turkiya
- Qirg'iz Respublikasi
- Qozog'iston
- Ukraina
- Boshqa davlatlar

**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	12541,4	19949,7	116,9	159,1	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	5280,2	5208,9	106,0	98,6	2	2
Turkiya	1202,2	4765,2	91,0	3,9 m	6	3
Qirg'iz Respublikasi	3229,6	4624,2	105,5	143,2	3	4
Qozog'iston	1465,8	1340,2	70,0	91,4	4	5
Ukraina	539,4	1157,5	124,7	2,1 m	7	6
Turkmaniston	300,1	644,4	170,8	2,1 m	9	7
Germaniya	49,0	548,6	31,9	11,1 m	20	8
Polsha	240,9	449,3	33,2	1,8 m	10	9
Tojikiston	111,9	397,4	2,1 m	3,5 m	13	10
Koreya Respublikasi	11,7	220,1	100,0	18,8 m	25	11
Moldovo Respublikasi	72,4	151,8	156,0	2,0 m	18	12
Hindiston	232,8	148,2	2,6 m	63,6	11	13
Belarus	123,4	137,1	51,4	111,1	12	14
Eron	0,0	121,8	100,0	100,0	-	15
Azerbadjon	0,0	117,3	100,0	100,0	-	16
Guruziya	20,8	108,6	100,0	5,2 m	23	17
Italiya	92,6	103,4	41,8	111,7	14	18
Isroyil	0,0	73,9	100,0	100,0	-	19
Latviya	0,0	73,6	100,0	100,0	-	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 1068,8 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,6 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,9 martaga ko'payganligi kuzatildi.

#### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 33,7 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 82,9 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 135,5 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

## NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar)

2022- yil yanvar oyida import hajmi 50,6 mln.AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 121,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (28,3 %), Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**IMPORT TARKIBI**  
(2022- yil yanvar, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Qora metal
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Boshqalar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 9,1 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 50,6 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar)**

XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>50,6</b>	<b>16,8</b>	<b>33,8</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	8,7	6,5	2,2	17,3	38,7	6,5
Qora metallar	3,6	1,7	1,9	7,0	10,1	5,6
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	12,2	1,3	10,9	24,1	7,7	32,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	14,3	0,9	13,4	28,3	5,3	39,6
Boshqalar	11,8	6,4	5,4	23,3	38,2	16,1


Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (38,7 %) Qora metallar (10,1 %), hamda MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (39,6 %), Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (32,2 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,


2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 28,3 % Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 17,3 % ga oshdi, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 24,1 % ga oshdi, ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR  
VA XIZMATLAR IMPORTI**

(yanvar, % va ulushi)







Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 31,6 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 17,3 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-dekabr)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	15211,8	19594,1	166,9	128,8	1	1
Rossiya Federatsiyasi	6512,4	7127,5	49,3	109,4	3	2
Turkiya	2338,8	4853,1	106,7	2,0 m	4	3
Qozog'iston	8812,4	3722,5	3,0 m	42,2	2	4
Turkmaniston	416,7	2549,3	2,5 m	6,1 m	12	5
Koreya Respublikasi	948,6	1813,8	72,8	191,2	6	6
Hindiston	868,9	1608,9	193,4	185,2	7	7
Litva	41,9	1073,1	25,0	25,6 m	27	8
Ukraina	707,0	1040,8	5,6 m	147,2	9	9
Qirg'iz Respublikasi	658,3	950,5	149,0	144,4	10	10
Germaniya	825,1	902,9	28,6	109,4	8	11
Tadijgiston	86,0	819,1	126,7	9,5 m	24	12
Eron	218,4	633,6	42,6	2,9 m	17	13

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'ri	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Belarusiya	405,6	615,1	8,4 m	151,7	13	14
Malaziya	499,8	477,1	37,1	95,5	11	15
Polsha	177,2	418,2	117,2	2,3 m	19	16
Chehiya	21,7	373,4	2,6 m	17,2 m	29	17
Shvedsariya	8,9	366,5	0,1	40,9 m	35	18
Gonkong	108,2	295,9	5,6 m	2,7 m	20	19
Latviya	296,9	266,2	125,6	89,7	15	20

2021- yining mos davriga nisbatan 38 davlatdan 29 davlatga kamaydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR-NING ULUSHI  
(2022- yil yanvar % da)**





Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog‘iston, Turkmaniston va Koreya Respublikasi) jami importning 78,4 % ini tashkil qiladi, bu 39660,3 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o‘shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Hindiston tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo‘limi  
Tel.:(69)-211-72-00**